

OLIGOFRENIYA HAQIDA TUSHUNCHA, SABABLARI, BELGILARI, OLDINI OLISH CHORALARI

Rustamova Dilraxon

Farg'ona shahar Abu Ali Ibn Sino nomidagi

Jamoat salomatligi texnikumi

Maxsus fanlar kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Oligofreniya haqida tushuncha, sabablari, belgilari, oldini olish choralari haqida aytib o'tilgan va muallif tomonidan muhim tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Oligofreniya, demensiya, debillik, imbetsillik, idiotiya, meningit, meningoensefalit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi

OLIGOPHRENIA CONCEPT, CAUSES, SYMPTOMS, PREVENTION MEASURES.

Annotation: This article discusses the concept, causes, symptoms, prevention measures of Oligophrenia and gives important recommendations by the author.

Keywords: Oligophrenia, dementia, debility, imbecility, idiocy, meningitis, meningoencephalitis, central nervous system damage

Oligofreniya yunoncha “oligos” — kam, oz; “fren” — aql, so'zlaridan olingan bo'lib, esi past, aqli past demakdir. Oligofren bolalar markaziy nerv sistemasining organik kasalliklari natijasida bilish faoliyati pasayib ketishi va bu nuqsonlar umrbod saqlanib qolish bilan boshqa anomal bolalardan farq qiladilar.

Amaliyotda “Aqlan zaif”, “oligofren”, “demensiya” degan atamalar ko'p ishlatiladi. “Aqlan zaiflik” — bu yig'ma tushuncha bo'lib, aqliy jihatdan qoloqlikning sodir bo'lgan vaqti, boshidan kechirilgan kasallikning harakteri, patologik o'zgarishlarning o'tishi, darajasi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni ko'zda tutadi.



Oligofreniya bola markaziy nerv sistemasining ona qornidaligi davrida, tug'ilish vaqtida va tug'lgandan, to 3 yoshgacha bo'lgan davr ichida shikastlanishi, kasallanishi natijasida kelib chiqadi. Agarda, turli sabablarga ko'ra, aqlan zaiflik bolaning 3 yoshidan keyingi davrida paydo bo'lsa, buni endi orttirilgan aqliy zaiflik - demensiya deb yuritiladi. Demensiya progressiv, ya'ni tabiatan kuchayib boradigan bo'ladi. Oligofreniyada esa nuqsonning kuchayib borishi kuzatilmaydi.

Kelib chiqish sabablariga ko'ra oligofreniya tug'ma hamda orttirilgan bo'lishi mumkin.

- Rezus faktoming to'g'ri kelmasligi, xromosoma kasalliklari, fenilketonuriya va shu kabilar tug'ma oligofreniyaga olib kelishi mumkin.

- Onaning xomiladorlik davrida turli kasalliklar — og'ir virusli gripp, tif, qizilcha bilan kasallanishi, ona organizmidagi turli parazitlarning homilaga yuqishi, xomilaning shikastlanishi, ota-onalarning alkogolizmi, ham oligofreniyaga sabab bo'lishi mumkin.

- Tug'ruq vaqtida bolaning ombur yoki vakuum ekstraktor bilan olinishi, bola boshining siqilishi, bolaning tug'ilish yo'lidan uzoq o'tishi, cho'zilib ketgan yoki, aksincha, haddan tashqari tez o'tgan tug'ruq natijasida ham markaziy nerv sistemasi shikastlanib, oligofreniya paydo bo'lishi mumkin.

- Oligofreniya bola uch yoshgacha bo'lgan davr ichida turli xil og'ir kasalliklar bilan kasallanishi (meningit, meningoensefalit, markaziy nerv sistemasining shikastlanishi) natijasida ham vujudga keladi.

Oligofreniyaning darajalari

Aqliy (intellektual) rivojlanishiga ko'ra oligofreniya uch darajada namoyon bo'ladi: 1) debillik; 2) imbetsillik; 3) idiotiya.

Debillik — aql pastlik oligofreniyaning eng yengil darajasi bo'lib, bunday bolalami tashqi ko'rinishiga qarab sog'lom tengdoshlaridan ajratib bo'lmaydi. Ular ko'pincha o'qishni ommaviy maktabning birinchi sinfidan boshlaydilar-u, lekin qisqa muddat ichida ulgurmovchi o'quvchilar orasiga qo'shilib qoladilar. Umuman, zehn va fahm-farosatga bog'liq ishlarda debil bolalar ancha qiynaladi, biroq ular yordamchi maktabga o'tib, dasturini o'zlashtirib chiqishsa, sanoat va hamda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida, maishiy hizmat sohasida oddiy turdagi mehnat bilan shug'ullana oladi. Tarbiyachi va o'qituvchilar debil bolalarni boshqa bolalardan ajratib olib, ularning maxsus bog'cha va maktablarda tarbiyalanishi va ta'lim olishini ta'minlashlari yoki integratsiyalashgan ta'limga jalb etishlari lozim.

Imbetsil va idiot bolalar xattoki yordamchi maktab dasturi bo'yicha ham ta'lim olish qurbiga qodir emaslar. Ular ijtimoiy ta'minot vazirligi rivojlanishida kamroq orqada qolgan imbetsil bolalar, afsuski, yordamchi maktablarda goho uchrab turishadi. Ular yordamchi maktab dasturini o'zlashtira olmaydilar. Idiot bolalar hattoki o'z ota-onalarini ham tanimaydi. Ular o'zini-o'zi uddalay olmaydi. O'ziga-o'zi xizmat ham qila olmaydi. Imbetsil bolalar idiot bolalarga qaraganda nisbatan tuzukroq rivojlangan

bo'lsa ham, mustaqil hayot kechirolmaydi. Mexnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi qoshidagi muassasalarda ularga sodda bilimlar, mehnatning ayrim sodda turlari (o`z-o`ziga xizmat qilish, ekinlarni parvarish etish, kartondan qutichalar yasash va hokazolar o`rgatiladi.

Oligofreniya – bolalarda uchraydigan aqliy zaiflik. Uning sabablari: tug`ruqning og`ir o`tishi, erta bolalik davrida o`tkazilgan bosh miyaning og`ir kasalliklari (meningit, ensefalit), bosh miya jarohatlari va qarindoshlar orasida turmush qurish. Homilador ayol aminokislotalar, glyukoza, vitaminlar va mineral moddalarga boy bo`lgan oziq-ovqatlarni etarli darajada iste`mol qilmasa ham aqliy zaif bola tug`ilishi xavfi oshadi. Homilador ayolni ruhan ezaverish ham ruhiy nosog`lom bolaning dunyoga kelishiga sababchi bo`ladi. Ba`zida oligofreniya sababini aniqlash qiyin. Belgilari: aqliy zaiflik rivojlanayotganligi, odatda, bola 2-3 yoshga etganda ma`lum bo`lib qoladi. Chunki bolaning nutqi 1 yoshdan keyin chiqa boshlaydi. Ota-ona bolaning o`z tengdoshlaridan orqada qolib borayotgani, harakatlari yo`qligi, tili kech chiqayotganiga e`tibor qaratadi. Masalan, bola 3 yoshga etsa ham nutqi rivojlanmay qoladi, o`yinchoqlarga qiziqmaydi, ruhiy faolligi o`ta sust bo`ladi. Bunday bolalarning aksariyati jismonan nimjon ham bo`lishadi. Oligofreniyaning og`ir turlarida bolaning boshi kichik bo`lib, uni tik tuta olmaydi. Bola 5-6 yoshga etganda aqliy zaiflik belgilari yanada yaqqol ko`zga tashlanadi.

Uning xatti-harakatlari 3-4 yashar bolaga o`xshaydi, ba`zilari juda qaysar, yig`loqi va o`jar bo`lsa, boshqa birlari o`ta sust bo`lib, o`yin-kulgili voqealarga sira e`tibor qilmaydi. Oligofreniyaning engil turida bola gaplashadi, uydagi ishlarni bajaradi, ust-boshiga e`tibor qiladi, biroq aqliy faollikni talab qiluvchi ishlarda ularning o`jiz ekanligi bilinib qoladi. Bunday bola bog`cha va maktabdagi oddiy topshiriqlarni bajara olmaydi, oddiy arifmetik qo`shish-ayirishlarda juda qiynaladi, uni tengdoshlari kalaka qilib yuradi. Shuning uchun ham oligofreniya bilan kasallangan bola o`zidan yosh bolalar bilan o`ynashni xush ko`radi. Necha yashar bolalar bilan o`ynayotganiga qarab, uning aqliy rivojlanishdan necha yil orqada qolayotganini bilib olish mumkin. Tashxis qanday qo`yiladi? Afsuski, aksariyat hollarda ota-onalar bola maktab yoshiga etganda shifokorga murojaat qilishadi. Ko`pincha bolaning aqliy rivojlanishdan orqada qolayotganligi tarbiyachilar yoki boshlang`ich sinf o`qituvchilari tomonidan sezib qolinadi. Bunday paytlarda bog`cha va maktabdagi psixologlar e`tiborli bo`lishlari, bolani psixologik testlardan o`tkazib turishlari lozim. Davolasa bo`ladimi? Bola neyropsixolog yoki tibbiy psixolog ko`rigidan o`tkaziladi. O`tkazilgan asab kasalliklarini aniqlash uchun nevropatolog ko`rigi ham zarur. Davolash muolajalari dori-darmonlar (glutamin kislotasi, lesitin, folat kislotasi, metionin, magniy va yod preparatlari), turli psixologik mashqlar va pedagogik usullar orqali olib boriladi. Bunday bolalar uchun turli sharoitlar yaratilgan maxsus maktablar mavjud. Ushbu maktablarda bolaning ruhiy va jismoniy salomatligini tiklash uchun maxsus pedagog

va psixologlar faoliyat ko‘rsatishadi. Yaxshi natijaga erishish bir necha yillarni talab qiladi.

Eslab qoling. Ko‘pchilik mendan “Nima uchun turli aminokislotalarni ko‘p tavsiya etasiz” deb so‘rashadi. Bosh miyada glutamin kislotasi, metionin, lesitin va folat kislotasi ishtirokisiz hech qanday aqliy jarayon kechmaydi. Bu dorilarni aqliy zaif bolalar vrach tomonidan tuzilgan maxsus sxema orqali oylab qabul qilishlari kerak. Ularning jigarga hech qanday ziyoni yo‘q, aksincha, foydali. Epilepsiyaning ba’zi turlarida ham bora-bora aqliy zaiflik rivojlanish xavfi bor. Chunki tutqanoq xurujlari tez-tez kuzatilaversa, bosh miyada glutamin kislotasi zaxirasi so‘na boshlaydi. Buning oqibatida aqliy zaiflik shakllanib boradi. Bu holatning oldini olish uchun turli aminokislotalarni bemorga oylab berish talab etiladi. Vrachlarimiz buni aslo unutmasliklari lozim. Xotirani tiklovchi har qanday dorilar aminokislotalar o‘rnini bosa olmaydi. Bu erda yod preparatlarini berishni ham esda tutish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Internet saydlari:

<https://uz.wikipedia.org/wiki/>

<https://fayllar.org/>

<https://med24.uz/uz/>